

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR Ning
YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyatga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrasi "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY'ATI

G'ulomov Saidahrор Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Qudratillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohruzbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mulaydinov Farxod Murotovich – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasi mudiri

Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li



Ta'lif sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

55	ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОПОВЕЩЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ - Ходжакулов Мухторжон Назаркулович,	241-246
56	ФОРМАЛИЗАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ СНИЖЕНИЯ РАЗМЕРНОСТИ ПРИЗНАКОВОГО ПРОСТРАНСТВА В ЗАДАЧАХ КЛАССИФИКАЦИИ - Х.Ш. Рашидов	247-254
57	YER OSTI KON ISHLARIDA FOYDALANILADIGAN TEHNIK ISHLANMALARNING INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH - U.M. Mamirov, U.T. Toshtemirov	255-256
58	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA SMART SHAXTALARINI TASHKIL QILISH - O.SH. Yormatov, U.T. Toshtemirov	257-258
5-SHO'BA. QISHLOQ XO'JALIGIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI YER UNUMDORLIGI, HOSILDORLIK VA NASLLI CHORVA MOLLARINI YETISHTIRISH		
59	PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISH ASOSLARI - Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o'g'li	260-262
60	BUGUNGI KUNDAGI OROL DENGIZI FOJIASI VA UNING OQIBATLARI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Esonaliyeva Madinabonu Shuxratjon qizi	263-264
61	SUG'ORILADIGAN TIPIK BO'Z TUPROQLARDA BIOMIKROELEMENTLAR MIQDORI VA RAQAMLI XARITALASH - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abduvaxobova Ximoyatxon Ilxomjon qizi, Ma'rufjonov Javohir G'ayratjon o'g'li, Solijonova Dilafro'zxon Shuxratjon qizi	265-267
62	SHOHIMARDONSOY KONUS YOYILMA TUPROQLARIDA BIOMIKROELEMENTLAR BIOGEOKIMYOSI - Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna, Abdulazizov Asilbek Abdulahad o'g'li, Toxirova Madinaxon Rasuljon qizi	268-270
63	ZAMONAVIY DEHQONCHILIKDA TOMCHILATIB SUG'ORISH - Yusupova Mohidil Abdumatalibovna, Abdullaaxatov Asadbek Ilhomjon o'g'li	271-274
64	QUMLI TUPROQLARNING EKOLOGIK-MELIORATIV HOLATI VA XOSSALARINING O'ZGARISHLARI - Yusupova Mohidil Abdumatalibovna, Ibroximov Shahroz Alisher o'g'li	275-277
65	MEVA VA SABZAVOTLI PASTILLALARINI QURITISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI - Xolikov M.M., Rahbar: Nasirova Sh.N.	278-280
66	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI - Xoliquov M.M.	281-282
67	ГЕОИНФОРМАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ПОДЗЕМНЫХ ВОД - Мадримов А.И.	283-291
68	SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG' EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI - M.A.Mirzayeva, M.I.Teshaboyeva	292-295
69	СУФОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАР ШАРОИТИДА БАХОРГИ МУДДАТДА ЭКИЛГАН СОЯНИНГ 1000 ДОНА ДОН МАССАСИГА ТАСИРИ - Холиқов Аброр Тоҳимуродович, Қурбонкулова Умида Ҳусанқизи	296-298
70	QISHLOQ XO'JALIGINI RAQAMLASHTIRISHNING STRATEGIYASI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI - Kenjayev Toshbolta Aminovich	299-303
6-SHO'BA. ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
71	ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLARGA YECHIMLAR - Ro'ziyev Shohruzbek Ravshanjon o'g'li	305-308

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI RIVOJLANISH OMILLARI**Xoliqov M.M.** – tayanch doktorant, NDPI

Annotasiya: Maqolada qishloq xo'jalik mahsulotlarini rivojlanish omillari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan. Qishloq xo'jaligiga ta'sir qiluvchi barcha omillar yani ijtimoiy, iqtisodiy va bevosita ularning ikkalasi bilan bog'liq bo'lgan fan va texnologiya rivojini ta'minlovchi, yer resurslari, tarkibi va ekologik omillar kabi guruhlarga ajratilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, meva, sabzavot, mahsulot, texnika, jarayon, tizim.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, amaliyatga kam sarfli energiya tejamkor usullarni qo'llash, oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash, import o'rnini almashtiruvchi raqobatbardosh va eksportbob mahsulotlarni tayyorlash" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, o'rik mevasi tarkibidagi namlikni chiqarib yuborishda pog'onali quritish usulini qo'llash, samarali bosqichma – bosqich ishlov berish tizimiga asoslangan energiya tejamkor quritish qurilmalarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda qishloq xo'jalik mahsulotlarini kompleksli qayta ishlash orqali import o'rnini bosuvchi, quritilgan meva va sabzavotlar ishlab chiqarish sanoatida yuqori darajada o'sish kuzatilmoqda. Meva va sabzavotlarni quritishda energiya sarfi yuqori, murakkab konstruksiyali qurilma va apparatlardan foydalananib kelinmoqda. Shunga ko'ra, qishloq xo'jalik xom ashyolarini qompleksli qayta ishlashga, past haroratli issiqlik berish tizimi asosida ishlovchi, mahsulotning butun hajmi bo'yicha namlikning bir meyorda chiqishini ta'minlashga asoslangan zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda zamon talabiga mos meva va sabzavotlarni quritishga mo'ljallangan, sifatli quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishning jarayon va qurilmalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, quritilayotgan mahsulotlarning tabiiy, fizik kimyoviy xossalarni saqlash imkonini beruvchi, o'rik mevasiga bosqichma bosqich past haroratli ishlov berishga mo'ljallangan zamonaviy quritish texnika va texnologiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Bugungi kunda quritish jarayonining nazariy asoslari, meva va sabzavotlarni quritishga mo'ljallangan texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga jahon miqyosida meva va sabzavotlarni quritishning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan - konveksiya, o'ta yuqori chastotali, IQ nur maydonida, vakuum ostida quritish bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga

oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarining xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birlashtirishda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlari bozorida kichik biznes taraqqiyotini ta'mishlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalgalashtirishda kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida agrar sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va faoliyatini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash uchun tajriba-sinov tariqasida investitsiyaviy dasturlarni amalga oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan [2].

Qishloq xo'jaligini samarali yuritishga, asosan, davlatning bevosita va bilvosita qo'llab-quvvatlashi bilan erishiladi. Odatda, bu qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos yo'nalishlari, jumladan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishni takomillashtirish (ishlab chiqarishni klaster uslubida tashkil etish); qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rag'batlantirish va uni qo'llab quvvatlashni kengaytirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilariga soliq imtiyozlari berish amal qiladi. "O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligini 2030 yilgacha rivojlantirishning davlat strategiyasi"da shu kabi boshqa tadbirlar ham nazarda tutilgan. Qishloq xo'jaligiga ta'sir qiluvchi barcha omillar: ijtimoiy, iqtisodiy va bevosita ularning ikkalasi bilan bog'liq bo'lgan fan va texnologiya rivojini ta'minlovchi, yer resurslari va tarkibi hamda ekologik omillar kabi guruhlarga ajratilgan. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi texnikasining rivojlanish istiqbollari turli quvvatlarga ega bo'lgan energetika vositalarini va ularga mos ishchi mashinalarni yaratishdan iborat. Bularidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining turli tashkiliy shakllarida foydalanishi ta'minlanadi. Shu bilan birga qo'llaniladigan har bir texnika xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash, hosildorlikni oshirish, mehnat va materiallar xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli Farmoni
2. Nasirova Sh.N., Holikov M.M., Jo'rayev X.A. The importance of improving the drying processes of fruit and vegetable pastilles // Научный журнал UNIVERSUM: «Технические науки» № 7 (100), М., Изд. «МЦНО», ISSN: 2311-5122, DOI: 10.32743/UniTech, 2022.100. – С. 7-4, Россия, 34-38 с.